O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
GEOGRAFIYA VA EKOLOGIYA FAKULTETI

Ro‘yxatga olindi: № BD:60710100-0711 2024 yil “10” 05	**“TASDIQLAYMAN”** SamDU rektori: _____ R.I.Xalmuradov 2024 yil “ ”

“Hayot faoliyati xavfsizligi”
FAN DASTURI

Bilim sohasi:	700 000 - Muhandislik ishlov berish va qurilish sohalari
Ta’lim sohasi:	710 000 – Muhandislik ishi
Ta’lim yo‘nalishi:	60710100 – Kimyo muhandisligi

SAMARQAND – 2024

Fan/modul kodi XFX1704	O‘quv yili 2026-2027	Semestr VI	ECTS – Kreditlar 4	
Fan/modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fan nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)	Umumiy (soat)
	Hayot faoliyati xavfsizligini	48	72	120

Fanning maqsadi (FM)	
FM1	**I. FANNING MAZMUNI** **Fanni o‘qitishdan maqsad** - bo‘lajak mutaxassislarga hayotiy faoliyatlarida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarini va ularni yo‘qotish usullarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnogen va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlardan, hamda boshqa halokatlardan aholini himoya qilish, ularni nazariy va amaliy jihatdan himoyalanishga tayyorlash hamda jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish qoidalarini o‘rgatishdan iborat. **Fanning vazifasi** – hayotiy faoliyatda yuzaga keladigan xavflarni identifikatsiyalash va ularni o‘rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarni oldini oladigan chora-tadbirlarni o‘rganish. Shuningdek, aholini tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalanish usullariga o‘rgatish, zararlangan shikastlanish o‘choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o‘tkazish, yong‘inga qarshi xavfsizlik choralarini ko‘rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko‘nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Fan mazmuni	
II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) **II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**	
Mashg‘ulotlar shakli: ma’ruza (M)	
M1	**Hayot faoliyati xavfsizligini ta’minlash asoslari.** Hayot faoliyati xavfsizligi haqida tushuncha. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi va vazifalari. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining tarkibiy qismlari va

	ularning tekshirish ob'ektlari. Faoliyat xavfsizligini tahlil qilish. Xavflar, ularning tasnifi. Faoliyat xavfsizligini ta'minlash tamoyillari, uslublari va vositalari. "Inson - muhit" tizimida inson omili.
M2	**Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari.** Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy asoslari, mazmuni. Ishlab chiqarishda faoliyat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha qabul qilingan asosiy qonunlar, standartlar, nizomlar, qoidalar va me'yoriy hujjatlar tizimi. Faoliyat xavfsizligi qonun – qoidalariga amal qilinishini nazorat qilish tizimi, qoida va talablarni buzganlik uchun javobgarlik. Ishlab chiqarishda xavfsizlikni ta'minlashga oid tadbirlarini rejalashtirish, mablag' bilan ta'minlash.
M3	**Inson mehnat faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar.** Inson mehnat faoliyatining turlari. Inson mehnat faoliyatining fiziologik asoslari. Mehnatni muhofaza qilishda ergonomikaning ahamiyati. Xavfsizlikni ta'minlashda psixologiyaning ahamiyati. Inson mehnat faoliyatiga ta'sir etuvchi salbiy omillar, ularning turlari, mohiyati va himoyalanish usullari.
M4	**Yong'in xavfsizligi. Yong'in va portlash.** O'zbekiston Respublikasining 2009 yil 30 sentyabrdagi "Yong'in xavfsizligi to'g'risida"gi qonunning mazmun-mohiyati. Yong'in ofati, uning kelib chiqish sabablari, omillari, turlari, yonish fazalari va ularning xususiyatlari. Iqtisodiyot tarmoqlari binolari, inshootlari va qurilish materiallarining yong'inga qarshi bardoshlilik darajalari. Yong'in ofatida inshootlardagi fuqarolarni evakuatsiya qilish tartibi, yong'inga qarshi to'siqlar, xususiyatlari, yong'in darakchilari va aloqa tizimi. Portlash hodisasi, uning xususiyatlari, unga qarshi chora-tadbirlar. Portlashning salbiy ta'sirlari.
M5	**Texnika xavfsizligi asoslari.** Texnika xavfsizligi bo'yicha me'yoriy hujjatlar. Ob'ektlarda texnika xavfsizligi ta'minlashni tashkillashtirish. Mehnat faoliyati jarayonida amal qilinishi zarur bo'lgan xavfsizlik qoidalari. Ishlab chiqarish jarayoniga, asbob va uskunalarga, himoya vositalariga, bino va inshoatlarga nisbatan quyiladigan umumiy xavfsizlik talablari va me'zonlari. Mehnat xavfsizligini ta'minlovchi texnik vositalar. Mehnat xavfsizligiga doir yo'l-yo'riq o'tkazish va xavfsiz ishlash usullariga o'qitish.
M6	**Elektr xavfsizligi tushunchasi.** Elektr tokining inson organizmiga ta'siri va ularning turlari. Elektr tokidan jarohatlanishning asosiy sabablari ularni oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar. Elektr qurilmalarida qo'llaniladigan muhofaza vositalari. Elektr toki bilan ishlaganda qo'llaniladigan umumiy va shaxsiy himoya vositalari. Elektr toki ta'siriga tushgan kishiga birinchi yordam ko'rsatish.
M7	**Xavfsizlikni ta'minlashda psixologiyaning ahamiyati.** Ishlab chiqarish jarayonlari sanitariyasi va gigiyenasi. Ishlab chiqarish mikroiqlimi tushunchasi. Ishlab chiqarish mikroiqlimining gigiyenik me'yorlari, ularning inson organizmiga ta'siri. Texnosfera havosi tarkibidagi ishlab chiqarish changlari va zaharli moddalarning inson organizmiga salbiy

	ta'siri, ularga qarshi chora-tadbirlar. Ishlab chiqarishda zararli moddalar va ulardan himoyalanish usullari.
M8	**Ommaviy qirg'in qurollari va ularning ta'sir etish omillari.** Zamonaviy qirg'in vositalari tasnifi. Oddiy qirg'in vositalari. Yadroviy, kimyoviy, biologik qurollar va ularning ta'sir etish omillari. Ommaviy himoya inshoatlari.
M9	**Mehnat faoliyati jarayonida amal qilinishi zarur bo'lgan xavfsizlik qoidalari.** Texnika xavfsizligi asoslari. Texnika xavfsizligi bo'yicha me'yoriy hujjatlar. Ob'ektlarda texnika xavfsizligi ta'minlashni tashkillashtirish. Ishlab chiqarish jarayoniga, asbob va uskunalarga, himoya vositalariga, bino va inshoatlarga nisbatan quyiladigan umumiy xavfsizlik talablari va me'zonlari. Mehnat xavfsizligini ta'minlovchi texnik vositalar. Mehnat xavfsizligiga doir yo'l-yo'riq o'tkazish va xavfsiz ishlash usullariga o'qitish. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning huquqiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi. O'zbekiston Respublikasida favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etilishi. Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar mazmun mohiyati.
M10	**Terrorizm va kiberxavfsizilik haqida ma'lumot.** Terrorizm tushunchasi, terroristik guruh, tashkilotlar. Terrorchilik harakatlarini amalga oshirish usullari va vositalari. Terrorizmning iqtisodiyot tarmoqlari va aholi uchun xavfli xususiyatlari. Favqulodda vaziyatlar turlari va xususiyatlari. Favqulodda vaziyatlarda aholining harakati. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 oktyabrdagi "Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida"gi 455-son qarorining mohiyati. Yer silkinishi va surilishi, tuproq, qor ko'chkilari, suv toshqini, kuchli shamollar, qurg'oqchilik va sel hodisasi ofatlari, ularning kelib chiqish sabablari, xususiyatlari, keltiradigan talafotlari va har bir katastrofik o'choqda olib boriladigan chora-tadbirlar. Ommaviy ximoya inshoatlari turlari, vazifasi va ularga qo'yiladigan talablar. Joylarda dozimetrik, kimyoviy va biologik nazoratlarni tashkillashtirish. Radiatsion, dozimetrik nazorat va kimyoviy razvedka asboblarini ishga tayyorlash.
M11	**Aholini favqulodda vaziyatlar ro'y bergan xavfli hududlardan xavfsiz hududlarga ko'chirish (evakuatsiya) tavsifi va turlari. Is gazidan zaharlanishning oldini olish hamda tabiiy gaz va boshqa muqobil yoqilg'i turlari bilan ishlaydigan isitish pechlari va anjomlaridan xavfsiz foydalanish.** Yurak-o'pka reanimatsiyasi (qayta jonlantirish)ni o'tkazish qoidasi. Favqulodda vaziyatlar havfi tug'ilganda va sodir bo'lganda aholiga xabar berish va ularni xavfli hududlardan xavfsiz

	hududlarga ko‘chirishni (evakuatsiya qilishni) tashkillashtirish. Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash. Evakuatsiya organlari, ularning tuzilishi va ishlash tartibi. Aholi evakuatsiyasini rejalashtirish va o‘tkazishni ta’minlash. O‘quv mashqlarini tayyorlash va o‘tkazish uslubiyoti. Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga ma’naviy-ruhiy tayyorlash. Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning targ’iboti. Iqtisodiyot tarmoqlari va ob’ektlari barqarorligini oshirish. Fuqaro muhofazasi tadbirlarini rejalashtirish. Iqtisodiyot tarmoqlari va ob’ektlarining barqarorligini oshirish tushunchasi va mohiyati. Barqarorlikni oshirishning asosiy yo‘nalishlari, chora-tadbirlari. Aholi va hududlarni muhofaza qilish tadbirlarini rejalashtirish. Favqulodda vaziyatlarning oldini olish rejasi va unga qo‘yiladigan asosiy talablar. Rejalarning tuzilishi, bo‘limlari va ilovalarning mazmuni.
M12	**Favqulodda vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.** Respublikada halokatlar tibbiy xizmatining tashkil etilishi va uning asosiy vazifalari. Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatishning tartib va qoidalari. Tomirlardan qon ketishi, turlari, vaqtincha to‘xtatish usullari. Suyak singanda ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam. Uzoq vaqt bosilish sindromida jarohatlanganlarga ko‘rsatiladigan birinchi tibbiy yordam. Suvga cho‘kkan odamga, sovuq urgan (muzlagan), elektr toki urgan insonlarga tibbiy yordam ko‘rsatish. Tabiiy ofat, avariya va halokatlarda jabrlanganlarni tibbiy saralash (triaj) qoidalari. Jabrlanganlarni transportirovka qilishda yordam ko‘rsatish. Jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish va ularni evakuatsiya qilishda qo‘l ostidagi mavjud vositalardan foydalanish. Favqulodda vaziyat xavfi tug‘ilganda va sodir bo‘lganda aholiga xabar berish va ularni xavfli hududlardan xavfsiz hududlarga ko‘chirishni (evakuatsiya qilishni) tashkillashtirish. Aloqa va xabar berish xizmatini tashkil etish, uning kuch va vositalari. Aloqa va xabar berish tizimining asosiy vazifalari. Xabar berish signallari va ularga binoan aholining harakati.
III. Amaliy mashg‘ulotlar bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar: seminar (S) Amaliy mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi.	
III. Mashg‘ulotlar shakli amaliy (A)	
A1	Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi va vazifalari. Hayot faoliyati xavfsizligi fanining tarkibiy qismlari va ularning tekshirish ob’ektlari.
A2	Hayot faoliyati xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari.
A3	Ergonomika tushunchasi va kasb kasalliklari..
A4	Elektr xavfsizligi. Elektr toki ta’siriga tushgan kishiga birinchi yordam ko‘rsatish.
A5	Shovqin va titrashdan himoyalanish texnik vositalarining guruhlanishi va tuzilishi. Sanoat korxonalaridan chiqadigan shovqin turlari
A6	Ommaviy qirg‘in qurollari va ularning ta’sir etish omillari..

A7	Mashina va mexanizmlar uchun texnika xavfsizligi talablari keltiriladigan me'yoriy hujjatlar tizim.
A8	Favqulodda vaziyat xavfi tug'ilganda va sodir bo'lganda aholiga xabar berish va ularni xavfli hududlardan xavfsiz hududlarga ko'chirishni (evakuatsiya qilishni) tashkillashtirish. F.V da birinchi tibbiy yordam berish asoslari.
A9	Ekologik tusdagi favqulotda vaziyatlar. O'ta xavfli infeksion kasalliklar va ularning proflaktikasi
A10	Xavflarning klassifikatsiyasi. Hozirgi zamon xavflarining tushunchasi. Xavflarning idinfikatsiyasi.
A11	Organizimning kuyish darajalari, davrlari va shok holati. Termik kuyishda birinchi tibbiy yordam.
A12	Texnika xavfsizligi asoslari. Texnika xavfsizligi bo'yicha me'yoriy hujjatlar. Ob'ektlarda texnika xavfsizligi ta'minlashni tashkillashtirish.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

№	Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:
1.	Hayot faoliyati xavfsizligi muammolarini o'rganishga katta hissa qo'shgan jahon va vatanimiz olimlari. Ularning asosiy ilmiy-amaliy ishlari.
2.	Xavflarni kvalifikatsiyalashning sonli, balli va boshqa uslublarini tahlil qilish.
3.	Xavfsizlikni ta'minlash tamoyillari va uslublarini tahlil qilish.
4.	Faoliyatning turli bosqichlarida xavfsizlik shartlarini tahlil qilish.
5.	Faoliyat xavfsizligini ta'minlashning ergonomik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.
6.	Ish o'rnini tashkillashtirishning talablari.
7.	Inson antropometrik ko'rsatkichlarining faoliyat xavfsizligiga ta'siri.
8.	Faoliyat xavfsizligini ta'minlashda psixologik omillarning ahamiyati.
9.	O'zbekiston Respublikasida hayot faoliyat xavfsizligini ta'minlash sohasida qabul qilingan qonun va me'yoriy hujjatlar tizimi.
10.	Hayot faoliyati xavfsizligi fani bo'yicha glossariy tuzish.
11.	Insonning fiziologik va psixologik tavsiflarining xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
12.	Odam anatomiyasining (antropometrik parametr-larining) xavfsizlikni ta'minlashdagi ahamiyati.
13.	Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid xalqaro tajriba va izlanishlar taxlili.
14.	Hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashga oid chet davlatlarda qabul qilingan qonunlar va me'yoriy hujjatlar taxlili.
15.	Shovqin va titrashdan himoyalanish texnik vositalarining guruhlanishi va tuzilishi.
16.	Mashina va mexanizmlar uchun texnika xavfsizligi talablari keltiriladigan me'yoriy hujjatlar tizimi.

17.	Respublika bo‘yicha yong‘inlar sodir bo‘lishi va ularda ko‘riladigan zararlar to‘g‘risida statik ma’lumotlar tahlili.
18.	Yong‘indan himoyalanishning zamonaviy texnik vositalari.
19.	Xalqaro terrorizm va terroristik tashkilotlar.
20.	O‘zbekistonda bo‘lishi mumkin bo‘lgan texnogen xavflar.
21.	Markaziy Osiyoda bo‘lishi mumkin bo‘lgan tabiiy xavflar
22.	“Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida"gi qonun bandlarini o‘rganish.
23.	Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimi(FVDT)ning strukturaviy tuzilishini o‘rganish.
24.	"Fuqaro muhofazasi to‘g‘risida"gi qonun bandlarini o‘rganish.
25.	“Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida"gi qonun bandlarini o‘rganish.
26.	“Xavfli ishlab chiqarish ob’ektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida" gi qonun bandlarini o‘rganish.
27.	Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha qabul qilingan davlat standartlari tizimini o‘rganish.
28.	“Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida" gi qonun bandlarini o‘rganish.
29.	“Sanitariya nazorati to‘g‘risida"gi qonun bandlarini o‘rganish.
30.	“Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida"gi qonun bandlarini o‘rganish.
“Hayot faoliyati xavfsizligi” fani bo‘yicha mustaqil ta’lim mavzulari uning mazmunini yoritish maqsadida tanlangan va talabada shu haqida bilim ko‘nikmasini shakllantirish nazarda tutilgan. Jumladan, Hayot faoliyati xavfsizligi muammolarini o‘rganish, O‘zbekiston Respublikasida hayot faoliyat xavfsizligini ta’minlash sohasida qabul qilingan qonun va me’yoriy hujjatlar tizimi bilan tanishish, Shovqin va titrashdan himoyalanish texnik vositalarining guruhlanishi va tuzilishi haqida ma’lumotlar yig’ish talabalar bilim ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Shu mazmunda MT da nazarda tutilgan mavzular haqida talabalar ish olib borishadi. Barcha keltirilgan mavzularni har biri to‘g‘risida talabalar qay tarzda o‘zlashtirish, bilim ko‘nikmasiga ega bo‘lish mexanizmi fanning sillabusida ochib beriladi.	

3.	**V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)** Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: Talabalarning "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanini o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tatbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, ma’ruza matnlari, tarqatma materiallar, elektron materiallar, elektron darsliklar vertual stendlar va boshqa materiallardan foydalaniladi. Shuningdek atroflicha bilim olishni ta’minlash maqsadida talabalarga mustaqil ish mavzulari ham beriladi. Ma’ruza, amaliy va laboratoriya

	darslariga mos ravishdagi ilg‘or pedagogik texnologiyaga ***tasavvur bilimga ega bo’lishi;*** Hayot faoliyati xavfsizligi fani ishlab chiqarish jarayoni bilan bevosi bog‘lanmagan. Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o‘rganish nafaq texnosferada xavflar tug‘ilganda, balki ishlovchilarni kasb kasalligig chalinishlarini qisqartirish, baxsiz hodisalarni oldini olish, favqulodd holatlarda jabrlanganlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsata olish, mehna qilish gigienasini o‘rganish, shuningdek, biosferada (atrof - muhitda) yu beradigan favqulodda vaziyatlarda insonlar o‘limi va moddiy zararla miqiyosini kamaytirish ***haqida ko’nikmalariga ega bo’lishi;*** • Insonlarni texnosferadagi faoliyati xavfsizligining asoslarini o‘rganis avvalo, tirik mavjudotlarning o‘zaro va atrof-muhit bilan birbiriga mun sabati to‘g‘risidagi umumiy bilimlarda Hfxning o‘rnini bilishdan boshlanadi "Hayot faoliyati xavfsiz ligi" fanini o‘qitish talabalarning o‘qish jarayonid ushbu o‘quv fani bo‘yicha o‘z lashtirilgan ma’lumotlarga hamda o‘quv rejasida rejalash tirilgan matematika va tabiiy-ilmiy hamda umum kasbiy va ixtisoslik fanlardan olgan bilimlariga tayangan holda olib boriladi va ulardan xulosalar chiqarish ekanligi haqida ***malakasiga ega bo’lishi kerak.***
4.	**Ta’lim texnologiyalari va metodlari:** Fan va ta’lim integratsiyasi mazmun mohiyatidan kelib chiqqan holda innovasiyalarni ta’lim tizimiga keng jalb etish, zamonaviy axborot-kommunikasiya tizimidan keng foydalanish
5.	**VI. Kreditni olish uchun talablar:** Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘liq o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat ishini topshirish

Asosiy adabiyotlar:

Tavsiya etilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ganiyev S.K., Karimov M.M., Tashev T.A. Axborot xavfsizligi. Fan va texnologiya nashriyoti. Toshkent 2017 y. 372 bet.
2. Yormatov G’.Y., Yuldashev O.R., Hamrayeva A.L. Hayot faoliyati xavfsizligi. – T.: “Aloqachi”, 2009 . – 348 b.
3. Qobilov E.E., Ixtiyorova G.A., Parmonov E.K., Ashurova M.G. Hayot faoliyati xafsizligi darslik 2019 y 207 b. 279 bet
4. Qobilov E., Qoriyev H., Parmonov E., Mardonova M. Hayot faoliyati xafsizligi darslik 2018 y 370 bet.

Tavsiya qilinadigan qo‘shimcha adabiyotlar

1. Tojiyev M.X., Nigmatov I va b. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. O‘quv qo‘llanma.–T.: MCHJ., Ta’lim manbai, 2002,-224 b.
2. Yunusov M.Yu., Ikromov E.J. Fuqaro muhofazasi - doimiy zarurat. –T.: 2002.

Rasuleva M.A., Yuldoshev O.R. Video terminallardagi xavfsizlik muammolari. O‘quv qo‘llanma -T.: ToshDTU, 2004. 3. Tinglovchilar uchun fuqaro muhofazasi masalalari bo‘yicha o‘quv qo‘llanmasi. O‘zR FVV FMI T.:2011 y. – 114 b. 4. Tojiev M. X., Nigmatov I., Hayot faoliyati xavfsizligi. O‘‘quv qo‘llanma. –T.: “Tafakkur-Bo’stoni”, 2012 y. – 272 b. 5. Raximova X. va boshqalar. Mehnatni muhofaza qilish. T.: O‘zbekiston, 2003 y. **Internet saytlar.** www. enn.uz; www.ziyonet.uz; www.naukaran.ru; www.maik.ru; www.rusplant.ru; www.floranimal.ru. http:www.ecologya.ru; www.ecolog.com	
7.	Fan dasturi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti O‘quv-uslubiy Kengashining 2024 yil “24” “avgust” № 1-son bayonnomasi bilan ma’qullangan
8.	**Fan/modul uchun mas’ullar:** **To‘xtayev M.Q.** - Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi dotsenti.tel:+998902713359
9.	**Taqrizchilar: Abdullayev R.B.** - Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Urganch filliali, fakultativ va gospital terapiya kafedrasi mudiri, t.f.d. professor. **Qobilov E.E.** – Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrasi professori, tibbiyot fanlari doktori. **Tel: +998972855926**

Universitetning 2024-yil 16- avgustdagi 301-ij buyrug‘i asosida
Fan dasturlari va mustaqil ta’lim topshiriqlarini ishlab chiqishga ma’sul ishchi guruhi:

Rais: **S.A. Xaydarov**

Ekspert guruhi a’zolari: **O.B. Niyazova**

Kafedra mudiri: **E.E. Qobilov**

Fakultet dekani: **S.B. Abbasov**

Sh. Rashidov nomidagi SamDU O‘quv ishlari bo‘yicha 1-prorektor: **A.S. Soleyev**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 60710100 – "Kimyo muhandisligi" yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanining fan dasturiga

TAQRIZ

Bugungi kunda insonlarning mehnat faoliyatda yuzaga keladigan xavflarni kamaytirish va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarni oldini oladigan chora-tadbirlarni o'rganish bugungi kunning dolzarb Shuningdek, aholini tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalanish usullariga o'rgatish, zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU "Ekologiya va hayot faoliyati havfsizligi" kafedrasi dotsenti M.Q.To'xtayev tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi hozirgi zamon hayotiy faoliyat xavfsizligi muammolari va hal qilish ahamiyatini qamrab olgan. Mazkur fan dasturi amaldagi DTS talablariga muvofiq ishlab chiqarilgan.

O'quv dasturida belgilangan mavzular fanning o'quv va ishchi rejalarida belgilangan soatlar hajmini to'la qamrab oladi. O'quv dasturining asosiy nazariy qismida ma'ruza mashg'ulotlari, mavzular va ushbu mavzulaming tayanch tushunchalari berilgan. Ma'ruza mavzulari uchun va bir-biri bilan uzviylikda berilgan. Amaliy mashg'ulotlar mavzulari ham zamonaviy talablar asosida tuzilgan.

Ushbu fan dasturini tuzishda hozirgi davrning asosiy xorijiy adabiyotlariga katta e'tibor berilgan.

"Hayot faoliyati xavfsizligi" fani fan dasturi, mavzular ketma-ketligi izchil va bir biri bilan uzviy bog'langan. Berilgan mavzular talabalar uchun sodda va tushunarli tarza ishlab chiqilgan. Ushbu o'tiladigan fandan ishlab chiqilgan fan dasturi DTS talablariga mos keladi va uni foydalanish uchun tavsiya etish mumkin.

Sh. Rashidov nomidagi SamDU
"Ekologiya va hayot faoliyati"
xavfsizligi kafedrasi mudiri professor: **E.E.Qobilov**

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti 60710200 – "Biotexnologiya" yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan "Hayot faoliyati xavfsizligi" fanining fan dasturiga

T·A·Q·R·I·Z

Insonlarning mehnat faoliyati natijasida yuzaga keladigan xavf xatarlarni oldini olishni o'rganish va ularni o'rganish, ishlab chiqarish jarayonlarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish, texnosferada kasb kasalliklarini kamaytiradigan va baxtsiz hodisalarni oldini oladigan chora-tadbirlarni o'rganish bugungi kunning dolzarb. Shuningdek, aholini tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalanish usullariga o'rgatish, zararlangan shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklov ishlarini o'tkazish, yong'inga qarshi xavfsizlik choralarini ko'rish, jarohat olganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko'nikma va kasbiy malakaga ega insonni tarbiyalashga qaratilgan.

Sharof Rashidov nomidagi SamDU "Ekologiya va hayot faoliyati havfsizligi" kafedrasi professori E.E.Qobilov tomonidan tuzilgan ushbu fan dasturi hozirgi zamon hayotiy faoliyat xavfsizligi muammolari va hal qilish ahamiyatini qamrab olgan. Mazkur fan dasturi amaldagi DTS talablariga muvofiq ishlab chiqarilgan.

Dasturida belgilangan mavzular fanning o'quv va ishchi rejalarida belgilangan soatlar hajmini to'la qamrab oladi. O'quv dasturining asosiy nazariy qismida ma'ruza mashg'ulotlari, mavzular va ularning tayanch tushunchalari berilgan. Ma'ruza mavzulari uchun va bir-biri bilan uzviylikda berilgan. Amaliy mashg'ulotlar mavzulari ham zamonaviy talablar asosida tuzilgan.

Aytish mumkinki, fan dasturini tuzishda Respublikamizdagi va xorijiy adabiyotlariga katta e'tibor berilgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, "Hayot faoliyati xavfsizligi" fani fan dasturi, mavzular ketma bo'lsa-ketligi izchil va bir biri bilan uzviy bog'langan. Ko'rsatilgan mavzular talabalar uchun sodda va tushunarli qilib ishlab chiqilgan. O'tiladigan fandan ishlab chiqilgan fan dasturi DTS talablariga mos keladi va uni foydalanish uchun tavsiya etish mumkin.

Toshkent tibbiyot Akademiyasi Urganch filliyali, ichki kasalliklar, reabilitologiya va xalq tabobati kafedrasi professori, T.f.d. professor: **R.B.Abdullayev**